

FINLANDIYA TAJRIBASI ASOSIDA UMUMIY O'RTA TA'LIMNI TASHKIL ETISH
MASALALARI

Fayziyeva Kamola Fatxullayevna

*Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi bosh kutubxonachisi
Oriental Universiteti "Ta'lim menejmenti" fakulteti magistranti*

Ushbu maqola hozirda yurtimiz ta'lim tizimida Finlandiya tajribasini joriy qilish tadbirlari, uning ijobiy va duch kelinadigan bir qancha muammolari haqida ma'lumot beradi. Modul yordamida tushuntiradi.

Kalit so'zlar: *PISA, nomarkazlashuv, akademik va kasb-hunar ta'limi, avtonomiya*

В данной статье представлена информация о мерах по внедрению финского опыта в систему образования нашей страны, его положительных и некоторых проблемах. Объясняет использование модуля.

Ключевые слова: *PISA, децентрализация, академическое и профессиональное образование, автономия.*


This article provides information about the measures to introduce the Finnish experience in the education system of our country, its positive and several problems. Explains using a module.

Key words: *PISA, decentralization, academic and vocational education, autonomy*

So'nggi yillarda Finlyandiya ta'limiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ko'p mamlakatlar o'qituvchilari, direktorlari va boshqa ta'lim ekspertlari Finlyandiyaning PISA kabi xalqaro baholash dasturlaridagi yuqori ta'lim natijalariga o'z qiziqishlarini ifodalamoqda. Jumladan O'zbekiston ham. Finlyandiya nafaqat eng yaxshi ta'lim natijalarini ortiqcha yuklamalarsiz va bolalarga yo'naltirilgan yondashuv bilan birlashtira oldi, balki barcha bolalarga ushbu sifatli ta'limni teng darajada taqdim etdi. Shu sababli ham, Finlyandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati dunyo hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otdi²⁸⁵. Albatta, Finlandiya ta'lim tizimining muhim asosi o'quvchilarga yodlash orqali bilim berish emas, balki ularni fikrlashga va shu orqali yuzaga kelgan muammoni mustaqil hal etishga tayorlashdan iboratdir. Bunda asosiy e'tibor aniq va tabiiy fanlarni puxta o'zlashtirish va olgan bilimlarini real ko'nikmalar asosida mustahkamlash, hayotda qo'llay olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'ylaymizki, mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish yo'lida boshlangan mazkur tashabbus farzandlarimizning zamonaviy bilim olishlari va mustaqil hayotga tayyorlashda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Finlyandiya Ta'lim

²⁸⁵ "Finlandiya ta'limi amaliyotda" ushbu kitob Respublika ta'lim markazi Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i Javlonbek Meliboyev tomonidan tarjima qilinmoqda.

va madaniyat vazirligi sayti ma'lumotlariga ko'ra²⁸⁶, mamlakatdagi ta'lim tizimi bir necha bo'g'indan iborat. Maktabgacha ta'lim pullik va uning narxi oilaning moddiy farovonligidan kelib chiqib belgilanadi. Undan keyin bir yillik majburiy maktabgacha tayyorlov bosqichi bo'lib, u bepul. Taqqoslash uchun, O'zbekistonda ham «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga muvofiq bir yillik majburiy maktabgacha tayyorlov ko'zda tutilgan²⁸⁷. Finlyandiya bolalar maktabga 7 yoshdan qabul qilinadi. Boshlang'ich ta'lim olti yil davom etadi. 7-sinfdan boshlab bolalar o'rta ta'limning uch yil davom etadigan birinchi bosqichiga o'tadi. Boshlang'ich maktabda va o'rta ta'limning birinchi bosqichida barcha bir xil ta'lim olishi kerak: bolalarni, bizning ixtisoslashtirilgan maktablarimizdagi amaliyotdan farqli ravishda, qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab ajratish mumkin emas. Boshlang'ich maktabda bolalar bilan faqat bitta o'qituvchi ishlasa, o'rta maktabda har bir fan bo'yicha alohida o'qituvchi dars beradi.



²⁸⁶ <https://okm.fi/en/education-system>

²⁸⁷ <https://lex.uz/docs/5013009>

O'quv yili 38 hafta, har bir dars 45 daqiqa davom etadi. Bolalar til (ona tili va adabiyot, ikkinchi davlat tili, xorijiy tillar), matematika, tabiiy fanlar va salomatlik haqidagi fan, din va etika, tarix va jamiyatshunoslik, san'at (musiqa, vizual san'atlar, qo'l hunari), ro'zg'orshunoslik va jismoniy tarbiya, shuningdek, o'z tanlovi bo'yicha boshqa fanlarni o'rganadi. Bundan tashqari, funksional va metakognitiv ko'nikmalar (o'z o'quv jarayonini nazorat qila olish ko'nikmasi) hamda kasb tanlovi bo'yicha maslahatlashuvlar uchun maxsus soatlar ajratiladi. O'quvchiga beriladigan haftalik yuklama, Yevropaning boshqa davlatlari bilan taqqoslaganda, past: 1 va 2-sinflarda minimal yuklama 20 soatni tashkil etadi va katta sinflarda 27 soatgacha ko'payadi (taqqoslash uchun: O'zbekistonda bu yuklama haftasiga 22 soatdan 34 soatgacha yetadi). Maktablarda xotirjamlashtiruvchi muhit hukmron, kiyim bo'yicha talab yo'q, darsliklar va tushlik bepul beriladi, darslar orasidagi uzoq tanaffuslar esa bolalarga o'ynash va dam olish imkonini beradi. To'qqiz yillik umumiy o'qishdan so'ng bolalar o'rta ta'limning ikkinchi bosqichidagi ikki yo'nalishdan birini tanlashi kerak: akademik yoki kasb-hunar (professional) ta'limi. Biror kasbni egallashni xohlaganlar kasb-hunar yo'nalishini tanlab, o'qishni tugatgach, tegishli sertifikat egasiga aylanadi. Qabul imtihonlar orqali amalga oshiriladigan akademik yo'nalishda esa bolalar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorlanadi va alohida fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'rganishi mumkin. Uch yillik ta'lim yakunida o'quvchilar natijalari oliy o'quv yurtlariga kirish-kirmaslikni hal qiluvchi milliy imtihonlarda qatnashadi. Bunday yondashuv bizning avvalgi «9+3» tizimimizni yodga soladi (to'qqiz yillik umumiy ta'lim + uch yil litsey yo kollejda o'qish). Shuni yodda tutish lozimki, har qanday ta'lim tizimining ishlashi ko'plab — tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa omillarga bog'liq. Jahon banki ekspertlari fin jamiyatining uni boshqa davlatlardan mutlaqo ajratib turuvchi va, xususan, ta'lim tizimida ham o'z izini qoldirgan quyidagi o'ziga xos farqli jihatlarini sanab o'tgan: kichik, etnik va madaniy jihatdan gomogen aholi (Finlyandiya aholisining atigi 4 foizigina fin emas) va aholi jon boshiga daromadlarning yuqori darajasi. O'zbekiston aholisi esa nafaqat ko'p, balki milliy, madaniy va diniy jihatdan ham xilma-xil, daromad darajasi esa o'rtachadan past. Simolaning yozishicha, mamlakat ta'lim tizimida 1970 yillardagi islohotning asosiy o'ziga xosliklaridan biri maktablarni «kuchli» va «oddiy»lariga ajratishdan voz kechib, hamma uchun bir xil umumta'lim maktablarining joriy etilishi edi. Jahon banki ham bolalarni (qobiliyatlari va qiziqishlariga ko'ra) erta ajratishdan voz kechish Finlyandiya maktab ta'limining asosiy xususiyatlaridan biri ekanini qayd etib o'tgan. O'zbekistonda esa, ekspertlarning ta'kidlashicha, ta'lim va fanni rivojlantirish strategiyasi iqtidorli bolalar uchun alohida, masalan, o'quvchilar 5 yo 7-sinfdan qabul qilinadigan prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishni ko'zda tutadi.

Finlyandiya ta'lim tizimidagi islohotlarning yana bir muhim jihati — 1970 yillardan boshlab boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlash kollej va seminariyalardan universitetlarning qayta tashkil etilgan ta'lim fakultetlariga ko'chirilgan, shuningdek, maktab o'qituvchilari magistr darajasiga ega bo'lishi shartligi

belgilab qo'yilgan. Hozir boshlang'ich maktabda dars berish uchun o'qituvchi ta'lim sohasida magistr darajasiga, o'rta maktabda dars berish uchun esa dars berayotgan fani bo'yicha magistr darajasiga ega bo'lishi lozim. Taqqoslash uchun: ochiq ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda o'qituvchilarning 13 foizi o'rta maxsus yoki tugallanmagan oliy ma'lumotga ega. Ishlayotgan pedagoglarning malakasini oshirish mahalliy munitsipalitetlar zimmasida va budjetni qanday sarflash ham ularning o'ziga havola bo'lgani bois, malaka oshirish imkoniyatlari va shakllari hudud va maktabga qarab farq qilishi mumkin. O'zbekistonda malaka oshirish tizimi, qoida tariqasida, hukumat qarorlari bilan tartibga solinadi va barcha uchun bir xildir. Faqat yaqindan boshlab o'qituvchilarga o'z malakasini oshirish uchun ta'lim muassasasini tanlash huquqi berildi..

Hanna Simolaning ta'kidlashicha²⁸⁸, Finlyandiya ta'lim islohotlaridagi yana bir muhim burilish nuqtasi bu — 1990 yillarda o'qituvchilar va maktab ustidan rasmiy nazoratdan voz kechilganidir: «maktablarni tekshirish, detallashtirilgan o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv materiallarini rasman tasdiqlash, o'qituvchi har bir darsni yozib borishi shart bo'lgan jurnallar kabi barcha an'anaviy nazorat mexanizmlari yo'qoldi».

Ta'lim bo'yicha ekspert, Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi islohotlariga bag'ishlangan «Finnish Lessons» kitobi muallifi Pasi Salbergning yozishicha²⁸⁹, Finlyandiyada o'qituvchilarni «qamchi va shirinlik» tamoyili asosida harakatga keltirishga intilish yo'q, aksincha, ularga katta erkinlik (avtonomiya) beriladi. O'qituvchilar o'z o'quvchilarini baholab borishlari va ularning davomati haqida hisobotlarni taqdim etishlari kerak, ammo, ayni vaqtda, ularning nazarida o'quvchilarga mosroq keladigan o'z dasturlarini ham ishlab chiqishlari mumkin. Umuman olganda, nomarkazlashuv (detsentralizatsiya) hamda munitsipalitetlar va maktablarga erkinlik (avtonomiya) berilishini ko'plab tadqiqotchilar fin ta'lim tizimidagi islohotlarning eng muhim samaralaridan biri, deya e'tirof etadi. Misol uchun, Milliy o'quv dasturi maktabdagi har bir fan bo'yicha maqsad va vazifalarni, shuningdek, ta'lim muhiti, o'qitish va baholashga aloqador umumiy qoidalarni belgilab beradi, biroq munitsipalitetlar va maktablar milliy dastur hamda mahalliy o'ziga xosliklar va o'z o'quvchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'z dasturlarini ishlab chiqishi mumkin. O'zbekistonda umumta'lim maktablari Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur va rejalarga qat'iy rioya qilishi shart. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi maktablarni akkreditatsiyadan o'tkazib, ularning reytingini tuzadi, o'qituvchilar esa Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tartibga solinadigan attestatsiya jarayonidan muntazam o'tib turishi talab etiladi.

²⁸⁸ Simola, Hannu (2014). *The Finnish Education Mystery*. London and New York: Routledge, 308 pp. ISBN 978-041-581-258-0.

²⁸⁹ <https://harvardpolitics.com/recreating-finnish-miracle/>

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Finlyandiyaning PISA'dagi muvaffaqiyatiga darsliklar emas, balki yuqorida sanab o'tilgan omillar (nomarkazlashuv (detsentralizatsiya), o'qituvchilarni tayyorlash va barcha uchun bir xil ta'lim olish imkoniyati) sabab bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. "Finlandiya ta'limi amaliyotda" ushbu kitob Respublika ta'lim markazi Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i Javlonbek Meliboyev tomonidan tarjima qilinmoqda.
2. <https://okm.fi/en/education-system>
3. <https://lex.uz/docs/5013009>
4. Simola, Hannu (2014). The Finnish Education Mystery. London and New York: Routledge, 308 pp. ISBN 978-041-581-258-0.
5. <https://harvardpolitics.com/recreating-finnish-miracle/>